

KUZ OBRAZI VA INSON KECHINMALARI: USMON AZIM SHE'RLARI MISOLIDA

Madraximova Inobat Bahodirovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1960–1970-yillar o'zbek she'riyati rivoji, ayniqsa lirik kechinmalar tasviri va ulardagi motivlar o'zgarishi (modifikatsiyasi) tahlil etiladi. Shuningdek, yangi o'zbek she'riyati vakillaridan biri – Usmon Azim ijodida kuz obrazining poetik talqini, uning lirik tuyg'ular bilan uyg'unligi, mavsumiy tasvirlar orqali ifodalangan ichki holat va kechinmalar poetik yondashuvda ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: she'r, lirika, poetika, motivlar modifikatsiyasi, fenomen, lirik kechinma.

AUTUMN IMAGE AND HUMAN EXPERIENCES: ON THE EXAMPLE OF USMON AZIM'S POEMS

Madrakhimova Inobat Bahodirovna

Chirchik State Pedagogical University

Teacher, Faculty of Primary Education

Abstract: This article explores the development of Uzbek poetry in the 1960s–1970s, focusing particularly on the depiction of lyrical emotions and the modification of motifs. It also analyzes the poetic interpretation of the image of autumn in the works of Usmon Azim, one of the representatives of modern Uzbek poetry, highlighting the harmony between seasonal imagery and lyrical feelings, as well as the expression of inner states and emotions through a poetic lens.

Key words: poem, lyrics, poetics, modification of motive, phenomenon, lyrical experience,

Kirish. Har bir poetik talqinda ijodkor fenomenining falsafiy-psixologik tarxi yotadi. Unda milat va bashariyat haqidagi og'riqli o'ylar zalvori tajassum etiladi. XX asrning 60-yillaridan buyon poetik yangilanishlar sarhadi tobora kengaydi. Olam va odam muammolarini anglash va anglatish borasida qator ijodiy yutuqlar qo'lga kiritildi. San'atning chegara bilmas qonuniyatlari o'z tavrini o'zgartirdi. Haqiqiy komillik sari dadil qadamlar davri boshlandi. Ayniqsa, 70-yillar avlodida Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon izlanishlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Adabiyotlar sharhi. Shuni qayd etish joizki, ijodkor hamma vaqtda o'z qalbini kashshofi bo'lib sahnaga chiqadi. U kim va qanday vaziyatda qalam tebratmasin, mohiyatida insoniy go'zallikni qayta idroklash malakasi qabarib ko'rinadi. Shu ma'noda, lirik kechinma tabiatda motivlar modifikatsiyasi alohida o'rin egallaydi. Prof.I.G'aniev ta'kidlashicha: "She'r, u biror konkret voqea-hodisa, his-tuyg'u yoxud hadis asosida yaratilishidan qat'iy nazar, ilhomning hosilasi sifatida tug'iladi. Binobarin, jonli ijodiy jarayonda shoir hajm bilan ko'p ham hisoblashib o'tirmaydi, balki ma'lum bir fikr yoki his-tuyg'uning tugal tasviri bunda rol o'ynaydi. Albatta, u yozishga kirishishdan oldin rejalashtiriladi, shakl va mazmunini taxminan belgilab oladi. Ammo hamma vaqt bunday "rejalashtirish" ijod jarayoni bilan mos kelmaydi. Binobarin, hajm ham biroz kichrayib qolishi yoki kengayib ketishi mumkin".[1] Darhaqiqat, she'riy asarda ijodkor davrning manzarasini ko'z o'ngida gavdalantirar ekan, unda qanday masalalar idrok etilishini to'liq bayoniga o'tadi. Masalan U.Azim, X.Davron, Sh.Rahmon she'rlarida kuzning poetik jilvasi – inson umri va uning shonli, ayanchli va qayg'uli qismati tarzida tasvirlanadi. Shuning uchun ham she'rning tagida birinchi siyosat, ikkinchi ruhiyat qabarib ko'rinishi tabiiy. Demak, kuz motivi ijodkor olamining hali anglanmagan sezimlariga borib tutashuvi shundan dalolat beradi.

Muhokama va natijalar tahlili. Shuni qayd etish lozimki, adabiyotshunoslik lugʻatida “Motiv” (lot.moveo - harakatlantiraman) – musiqashunoslikdan oʻzlashtirilgan termin.[2] Motiv musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek, oʻzgartirilishi yoki zid M.lar kiritish) asosida rivojlantiriladi. Adabiyotshunoslikda motiv termini turlicha maʼnolarda qoʻllaniladi. M.lar turli variantlarda qoʻllanilib, lirik qahramonning turfa oʻy-hislarini loʻnda va taʼsirli ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bir shoir ijodi yoki bir davrda yashagan shoirlar ijodi doirasida takrorlanuvchi poetik obrazlar motiv obrazlar sanaladi”[3] Choʻlponning aksariyat sheʼriyatida erk, ozodlik, hurlik, binafsha U.Azimda daraxt, olov, xazon, kuz, hijron motivlari uchraydiki, Sh.Rahmonda koʻngil, kuz, inson, borliq, olam kabi motivlar mavjud. Bu kabi motivlar tabiatida hamma vaqt ijodkorning umuminsoniy gʻoyalari, kechinmalarida oʻz ifodasini topadi. Atama musiqadan oʻzlashgan adabiyot, ayniqsa, sheʼriyat bilan bogʻliq qirralari xususida toʻxtalganda, haq va oshiq orasidagi ruhiy yaqinlikni uchratishimiz mumkin:

Qahraton oʻtkinchi – toʻnmoq oʻtkinchi,

Bahor oʻtkinchidir – unmoq oʻtkinchi.

Yoz ham oʻtkinchidir – toʻnmoq oʻtkinchi –

Faqat kuzak cheksiz – soʻlmoq cheksizdir.

Sheʼrdagi ayriliq va visol umidida yonayotgan oshiqning dardu hasrati poetik talqin etiladi. Shoir kuzning cheksizligiga shubha qilmaydi. Undan olam-olam maʼno topadiki, boshqa hamma narsaning oʻtkinchiligini birma-bir tavsiflab chiqadi. Mana shu yerda poetik talqin shoir badiiy olamining cheksizligini asoslaydi.

Mana shu sheʼrda motiv qizil ip boʻlib, kuzning xazonli lahzalarini, uning ayriliq hukmi bilan abadiyligini isbotlashga harakat qiladi. “Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida shakl va mazmun birligi masalasi har qachongidan ham dolzarb boʻlib bormoqda. Chunki shoirlarimiz tomonidan olib borilayotgan shakliy-uslubiy va mazmuniy oʻzgarishlar bugungi sheʼriyatimizdagi subʼektiv olam tasvirini tubdan oʻzgartirdi. Lirik kechinmaning ifodasida topoxronos imkoniyatlaridan foydalanish

kuchaydi. Buni shoirlar dunyoqarashining shartli aksi deb qarash mumkin"[4], - deya yozadi dots. Q.Yo'ldorov. Haqiqatdan ham, olimning fikr-mulohazalari o'rinli. Lirik kechinmaning o'ziga xosligi shoir qanday mavzuni va mazmunni idroklagani bilan o'lchanadi.

Oyatlar o'qiydi kuzning har ro'zi,
Har yaproq bir hadis – tersam, maylimi?
O'rikning qontalash bargidan o'zim
Bargdastalar tuzib bersam, maylimi?

Shoir juda ko'plab she'rlarida kuzga, xazonga va to'kilayotgan yaproqlarga murojaat qiladi. Uning murojaatlari shunchaki murojaat emas. unda millat dardu hasratlari, insonning nafsni tiyishga qaratilgan da'vatlari, iztiroblari qizil ip bo'lib o'tadi. Shoir qaysi nuqtadan turib botiniy olamini yuzaga chiqarmasin Alloh va Inson o'rtasidagi tasavvur, tafakur, itoat, gunoh va tavba motivlarini bir ipga tizilgan marjondek idroklaydi. Ya'ni inson o'zini o'rab turgan muhit bilan aloqaga kirishadi. Millatning kuchli yoki qaramligi undagi ruhiyatning nechog'li yuksakligi bilan o'lchaydi. Mana shu tamoyil shoirni – kuz obraziga bo'lgan munosabatini ham, xazonlardan hikmatlar shodasini terishida ham juda qo'l keladi

Xulosa va takliflar. Umuman, lirik kechinmada motivlar modifikatsiyasi shakl va mazmunni uyg'unligini kafolatlaydi. Talqin idrokida shoir anglamlari uslubiy o'ziga xoslik kasb etadi. XX asrning 70-yillaridan keyingi avlod izlanishlarida kuz poetik obraz fragmentlarini jipslashtirdi. Erk va ozodlik uchun qurbon bo'lgan jadid mutafakkirlarining ijodiyotini barakali davom ettirdi. Natijada, shoirlar o'zlarining talpingan ideallariga chiqishdi. Vaqt sinovidan omon o'tgan har qanday poetik talqin millat fojeasini obrazli gavdalantirishdan sira uzoqlashmadilar. U.Azim, Sh.Rahmon, X.Rustamovalar pokiza tuyg'ularida insoniy muhabbatning ulug'vor manzarasining ifodasini ko'ramiz. Mana shu jihatdan olib qaraganda, kuz erkinlik va istiqlol shukuhiga evrildi. Bunday ta'rif ko'proq U.Azim ijodiy olamida alohida mavqe kasb etadi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madrakhimova, I. B. (2022). The interpretation of autumn in the poetry of Usman Azim. *Galaxy*, 10(10), 336-340.
2. Madrakhimova, I. (2023). THE INTEGRITY OF TRANSFORMATIONAL IDEAS CARRYING IMAGERY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(6), 137-143.
3. Bahodirovna, M. I. DOSTONCHILIK MAKTABLARI VA ULARNING AN'ANALARI, QAHRAMONLIK DOSTONLARINING XUSUSIYATLARI.
4. Madraximova, I. B., & Muminov, Z. S. (2022). YUKSAK TOG'LAR FARZANDI. Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари ва уни ўқитиш методикаси муаммолари, 1(1), 177-179.
5. Bahodirovna, M. I. (2021). Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni. *Ta'lim fan va innovatsiya*, 1(5), 140-142.
6. Bahodirovna, MI (2022). Normurod norqobilov hikoyalarida odam va hayvonlar obrazi. *ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali* , 12 (2), 243-245.
7. . Қуронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т., Академнашр. 2013. –Б.180-181.
8. Йўлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеъриятида макон ва замон категорияси. Филол.фан.док.дисс. –Ф.2021. -Б.102
9. Усмон Азим. Сайланма. –Т: “ШАРҚ”. 1995. –Б.265.